

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ZAXIDOVA ZULFIYA XALILULLAYEVNA

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI
KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (RhD) on
economical sciences**

Zaxidova Zulfiya Xalilullayevna

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish.....3

Захидова Зулфия Халилullaевна

Совершенствование механизмов кредитования субъектов малого бизнеса коммерческими банками.....24

Zaxidova Zulfiya Xalilullaevna

Improving the mechanism of lending to small business subjects by commercial banks.....46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ZAXIDOVA ZULFIYA XALILULLAYEVNA

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI
KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2570 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Isakov Janabay Yakipbayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar: **Ismailov Alisher A'zamovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.3/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___»-_____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.P.Eshov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor;

U.V.Gafurov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor;

S.K.Xudoyqulov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish va raqobatning keskinlashuvi sharoitida iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta'minlovchi kichik biznes faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida tijorat banklari tomonidan kreditlashning ustuvorligi va ahamiyati oshib bormoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning YaIMdagi ulushi 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Iqtisodiyotda band bo'lgan aholining asosiy qismi ham kichik biznes sohasida band bo'lib, ular Yaponiyada 70 foizdan ortig'ini, AQSHda 80 foizdan ortig'ini tashkil qilmoqda. Kichik biznes subyektlari faoliyatining 80 foizdan ortiq qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi¹. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda kreditlash bo'yicha ilg'or innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatish va taklif etish borasida raqobat muhiti jadal takomillashmoqda.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida tijorat banklari kreditlash mexanizmini takomillashtirish borasida bank kreditlari sifatini oshirish, kredit risklarini kamaytirish, mijozlarning kredit qobiliyatini obyektiv baholash usul va mexanizmlarini mukammallashtirish, kreditlash mexanizmini bank uchun eng maqbul bo'lgan daromadlilik strategiyasiga aylantirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va kreditlash salohiyatini oshirish bo'yicha ilg'or innovatsion bank xizmatlari va mahsulotlarini joriy etish kabi tadqiqot yo'nalishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda bank tizimi faoliyatining strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, kredit resurslarini samarali joylashtirish, boshqarish va taqsimlash, kreditlash risklarini kamaytirish, kreditlashning zamonaviy shakllarini tadqiq etish, shaffof va mukammal kredit siyosatini shakllantirish kabi muammolarning ilmiy asoslari tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. «...Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda kichik biznes subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda»². Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining faol tarkibiy subyekti hisoblangan kichik biznes subyektlari faoliyatining barqaror rivojlanishi bank tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda tijorat banklari tomonidan

¹ Обзор сферы услуг Западных стран. www.export.by/act./doc@mode, [http://aftershock.news](http://aftershock.news: Politeconomica.ru/feb 2013/malyj – biznes.: http://aftershock.news).

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-3270-сон. 2017 йил 12 сентябрь. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.09.2017й.,07/17/3270/0004.

ularga ko'rsatilayotgan innovatsion kompleks bank xizmatlari, jumladan, innovatsion kreditlash xizmatlarini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqish talab etiladi. Xususan, hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 55-60 foizi davlat dasturlari asosida berilayotgani, imtiyozli kreditlar ulushining ko'pligi, banklar depozit bazasining barqaror emasligi, inflatsiya riskining yuqori ekani³ bu boradagi mavjud muammolarni hal etish zarurati va ahamiyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi riskli jarayonlarni baholash va boshqarish hamda kreditlash mexanizmining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning ayrim jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan M.A.Passel, Yu.A.Gerasina, D.M.Noton, O.I.Lavrushin va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullayev, G'.Q.Yaxshiboyev, R.M.Yunusov, B.S.Mamatov, G.O.Turdiyeva, M.S.Rustamov, I.Ya.Qulliyev, F.Xolmamatov va boshqalarning ilmiy ishlarida banklarning kreditlash mexanizmini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan⁴. Xususan, Sh.Z.Abdullayev kredit bahosini belgilashda

³ Манба: <http://cbu.uz/>.

⁴ Пассель М.А. Заем, кредит, ссуда. – М.: Деньги и кредит, №4, 1999.; Герасина Ю.А. Управление кредитным портфелем коммерческого банка // Бизнес в законе. – 2011. – №1.; Нотон Д.М. Банковский учреждения в развивающихся странах. Вашингтон, 1994, том I, 88-89 с.; Банковский надзор и аудит. – М., Инфра-А, 1996. - 56 с.; Кредитный процесс коммерческого банка. – М.: ДЕКА, 1995. – 71 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2016. – 360 с.; Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш. и.ф.д. илм. дараж. олиш учун ёзил. дисс. автор. – Т., 2000. 43-б.; Яхшибоев Ф.Қ. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни молиявий таъминлаш масалалари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТМИ. 2005. 23-б.; Юнусов Р.М. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес субъектларини молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўллари. и.ф.н. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автор. – Т.: ТДИУ. 2008. 19-б.; Маматов Б.С. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини микромолиялаш амалиёти ва уни такомиллаштириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Т., 2010, 115-б.; Турдиева Г.О. Хўжалик юритувчи субъектлар кредит қобилияти таҳлилининг назарий ва ташкилий-услубий жиҳатларини такомиллаштириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Т., 2019. 8-9

kredit mablag'larining bahosi va kredit amaliyotlari xizmatining qiymati asosiy mezon sifatida xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan⁵.

Bugungi kunda tijorat banklari kredit siyosati, jumladan, kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmidagi kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablari, respublikada banklarning kreditlash tartibi hanuzgacha jahon standartlari va mijozlarning talablariga javob bera olmasligi, rivojlangan davlatlar tijorat banklarining kreditlash mexanizmining mamlakat tijorat banklariga tatbiq etilmayotgani mazkur dissertatsiya mavzusining tanlanishiga sabab bo'ldi. Tijorat banklarining bugungi kundagi kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmidagi mavjud muammolarini aniqlash, xorijiy banklarning kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining ustuvor tomonlarini amaliy tahlillar asosida o'rganish, ularning bu sohadagi ilg'or tajribalari O'zbekiston tijorat banklari kreditlash mexanizmidagi joriy qilish yuzasidan aniq asoslangan ilmiy takliflarni taqdim etish ko'zda tutilganligi ushbu ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini namoyon etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash faoliyatining nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

xorijiy davlatlar banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini o'rganish;

respublika tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini tahlil qilish va zamonaviy holatiga obyektiv baho berish;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmi, shuningdek, kredit siyosatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

б.; Рустамов М.С. Кичик бизнес субъектларини кредитлаш амалиётини илгор хориж тажрибаси асосида такомиллаштириш йўллари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Т., 2019. 8 б.; Куллиев И.Я. Кредит баҳосининг шаклланиши ва уни такомиллаштириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. – Т., 2010. 5-6 б.; Саидов Д.А. Тижорат банкларининг қисқа муддатли кредитлаш амалиёти ва уни такомиллаштириш йўллари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. Т., 2008. – 5 б.; Иминов О.К. Бозор иқтисодиёти шароитида кредит тизими ва уни такомиллаштириш масалалари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Т., 2001. – 6-7 б.; Холмаматов Ф.К. Тижорат банкларининг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш. PhD илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: ТМИ. 2019. 8-9 б.

⁵ Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банклари кредит портфелини диверсификациялаш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Т., 2000. - 36 б.

Tadqiqotning obyekti – O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmi.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklari kreditlash mexanizmi jarayonlarida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o‘rganish, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash, korrelatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit ta’minoti sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratish asosida kreditlarning qaytmaslik xavfini kamaytirish orqali kredit operatsiyalari bo‘yicha risklarni tartibga solish taklifi asoslangan;

tijorat banklari kreditlash mexanizmida kredit scoring tizimini smart raqamli bank fazasiga transformatsiyalash asosida amaldagi 5 pog‘onali kreditlash jarayonini (biznes-protsess) 2 pog‘onali kreditlash jarayoniga o‘tkazish orqali masofaviy (onlayn) xizmatlardan foydalanuvchilar sonini oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida islomiy bank tamoyillari (qarz mablag‘larini foizsiz taqdim etish) asosida xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish natijasida bank omonatlaridan foydalanishning kengayishi banklardagi resurs taqchilligini bartaraf etish, kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish va muammoli kreditlar salmog‘ini kamaytirishga xizmat qilishi asoslangan;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonlarini takomillashtirish asosida 2025-yilgacha mazkur yo‘nalishdagi kreditlar hajmi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tijorat banklari kreditlash mexanizmida kichik biznes subyektlarining kreditlash mexanizmini «ball tizimi» shkalasi orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

tijorat banklari kreditlash mexanizmida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit ta’minotini sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratish orqali kreditlarning qaytmaslik xavfini kamaytirish mexanizmini takomillashtirish taklifi asoslangan;

kredit ta’minoti sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratish kredit operatsiyalari bo‘yicha risklarni minimallashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslangan;

tijorat banklarida islomiy bank xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish orqali banklardagi resurs taqchilligini kamaytirish va kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish taklifi Mikrocreditbankning rivojlanish strategiyasiga kiritilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma’lumotlari, muayyan me’yoriy hujjatlar, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hisobotlaridan foydalanilgani, ishda qo‘llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa,

taklif va tavsiyalarining «Mikrokreditbank» ATB mexanizmiga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqish hamda kreditlash mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy loyiha, oliy o'quv yurtlarida «Pul va banklar», «Bank ishi», «Bank risklari», «Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish» kabi fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit ta'minoti sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratish asosida kreditlarning qaytmaslik xavfini kamaytirish orqali kredit operatsiyalari bo'yicha risklarni tartibga solish taklifi «Mikrokreditbank» ATB kreditlash amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 30-yanvardagi 04-27/1832-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning bank mexanizmiga joriy etilishi natijasida kredit ta'minoti sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratilishi kredit operatsiyalari bo'yicha risklarni minimallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bank kredit portfelidagi muddati o'tgan kreditlar ulushi 3,0 foizni (532 mlrd. so'm) tashkil etgan;

tijorat banklari kreditlash mexanizmida kredit skoring tizimini smart raqamli bank fazasiga transformatsiyalash asosida amaldagi 5 pog'onali kreditlash jarayonini (biznes-protsess) 2 pog'onali kreditlash jarayoniga o'tkazish orqali masofaviy (onlayn) xizmatlardan foydalanuvchilar sonini oshirish taklifi «Mikrokreditbank» ATB kreditlash amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 30-yanvardagi 04-27/1832-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning Mikrokreditbank amaliyotiga joriy etilishi avvalgi 5 pog'onali kreditlash jarayonini (biznes-protsess) 2 pog'onaliga tushirish tizimini joriy qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, masofaviy (onlayn) xizmatlardan foydalanuvchilar sonining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan;

tijorat banklarida islomiy bank tamoyillari (qarz mablag'larini foizsiz taqdim etish) asosida xizmat turlarini yo'lga qo'yish natijasida bank omonatlaridan foydalanishning kengayishi banklardagi resurs taqchilligini bartaraf etish, kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish va muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirishga xizmat qilishi taklifi «Mikrokreditbank» ATB amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 30-yanvardagi 04-27/1832-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning Mikrokreditbankni rivojlanish strategiyasiga kiritilishi belgilanib, bank omonatlaridan foydalanishning kengayishi banklardagi resurs taqchilligini bartaraf etish, kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish va muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonlarini takomillashtirish asosida 2025-yilgacha mazkur yoʻnalishdagi kreditlar hajmi oshishining ijobiy prognoz koʻrsatkichlari yuzasidan kiritilgan taklifi «Mikrokreditbank» ATB amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 30-yanvardagi 04-27/1832-son maʼlumotnomasi). Ushbu taklif Mikrokreditbankning rivojlanish strategiyasiga kiritilishi belgilanib, mazkur yoʻnalishdagi kreditlar hajmini oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy gʻoya va xulosalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya ishi boʻyicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining nazariy-uslubiy asoslari va xorijiy davlatlar tajribalari**» deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashga doir nazariy-konseptual yondashuvlar, tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmi bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan. Tadqiqotning vazifalaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash faoliyatini shakllantirishning nazariy-iqtisodiy asoslariga daxldor natija va xulosalar shakllantirilgan.


Bugungi kunda rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti rivojida kichik biznes subyektlariga muhim e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, «Jahon banki tomonidan kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qariyb 4,8 mln. AQSH dollariga teng kreditlarni dunyoning 47 davlatiga 61 ta loyihani moliyalashtirish uchun ajratdi»⁶. Bundan tashqari, jahon banki tomonidan 45 ta davlatning 91 ta tijorat bankida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik biznes segmenti bank uchun foydali mijoz ekani ma‘lum bo‘ldi⁷.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqboli yo‘lida, avvalo rivojlangan davlatlarning ilg‘or xorij tajribasi hamda usullarini har tomonlama to‘liq o‘rgangan holda, keyin bu tajribalarni tahlil qilib, sharoitga moslashtirib ulardan foydalanish o‘ta muhimdir. Shuning uchun ham kreditlash mexanizmini rivojlantirishda bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ulardan O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash mexanizmini takomillashtirishda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining tarkibiy qismlari doimiy o‘zaro munosabatda bo‘ladi va bu uzviylikdan yaxlitlik kelib chiqadi. Bu yaxlitlik qonuniyatlarini bilish uchun birinchi navbatda kreditlash mexanizmini tarkib toptiruvchi qismlarning ketma-ketligi, ya‘ni qaysi biridan keyin qaysisi kelib chiqishini belgilab olish lozim. Tijorat banklarida kreditlash mexanizmini shakllantirish o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir qancha bosqichlarni qamrab oladi (1-rasm).

⁶ <http://projects.worldbank.org>. The World Bank Data as of January 2018.


⁷ Beck, Demirgus-Kunt and Maksimovich 2008, Banking Services for Everyone? Barriers to Bank Access and Use around the World, Bank Economic Review. www.doingbusiness.org.



1-rasm. Tijorat banklarida kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini shakllantirish modeli⁸.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmi monitoringida mijozning moliyaviy holatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, kichik biznes subyektining moliyaviy ahvolini baholash, audit qilish va o'zaro chambarchas bog'liq bir qancha bosqichlarni qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, kreditlash mexanizmi monitoringi kredit jarayonining turli bosqichlarida olib boriladigan keng miqyosli kredit nazoratlarini qamrab oladi (2-rasm).

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.




2-rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmi monitoringi⁹.

Tijorat banklarida kreditlash mexanizmi va monitoringini olib borish bo'yicha bank mustaqil ravishda bankning kredit siyosatini ishlab chiqadi va u asosiy hujjat hisoblanadi. Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan chora va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Jahonda tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlar ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari ko‘rsatkichlari 2022-yilda AQSH tijorat banklari va Yevro hududdagi tijorat banklari ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori ekaniga guvoh bo‘lamiz. Ammo AQSH banklari hamda Yevro hududdagi banklarda aktivlar tarkibida kreditlardan tashqari qimmatli qog‘ozlarga ajratilgan investitsiyalar salmog‘i yuqori. Bu tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini yanada oshiradi va ularning sifatiga bog‘liq bo‘ladi hamda banklarning kreditlash samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Kreditlar banklar uchun asosiy daromad manbasi bo‘lib, kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari odatda qimmatli qog‘ozlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Misol tariqasida, 2022-yil yakunida AQSH tijorat banklari tomonidan barcha aktivlarning 56,2 foizini kreditlar tashkil etdi. Kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi esa 4,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, banklar tomonidan sotib olingan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi faqat 2,5 foizni tashkil etdi. Shunday qilib, agar bank kredit portfeli hajmi tezroq sur‘atlarda oshishi mumkin bo‘lsa uning bahosi oshadi¹⁰. AQSH kichik banklari tijorat, chakana va boshqa kredit tularini kengaytirib, moliyaviy barqarorlik va zararni kamaytirish imkoniyatlarini, yirik banklari esa risk darajasi yuqori tijorat kreditlarini berishda o‘z ustunligini kuchaytirmoqda¹¹ (3-rasm).



3-rasm. Jahon tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi¹² (foizlarda).

Tadqiqotlar natijasida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida ham moliya bozori elementlari va ulushini oshirish muhim hisoblanadi.

¹⁰ Jijun Niu Loan growth and bank valuations The Quarterly Review of Economics and Finance 61 (2016) 185–191 www.elsevier.com/locate/qref.


¹¹ S. Ben Naceura, Katherin Martonb, Caroline Roulet Basel III and bank-lending: Evidence from the United States and Europe / Journal of Financial Stability 39 (2018) 1–27 www.elsevier.com/locate/jfstabil.

¹² www.cbu.uz, www.fred.stlouisfed.org, www.ecb.europa.eu sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu esa, O‘zbekiston Markaziy bankining ochiq bozor siyosatini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning «O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining joriy holati» deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining me‘yoriy-huquqiy asoslari, O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining tahlili hamda ularga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Jahon amaliyoti tahlil qilinganda, 2021-yilda dunyo iqtisodiyotining rivojlanish sur‘ati o‘tgan yillarga nisbatan biroz kamayib, o‘shish 3,6 foizni tashkil qildi¹³. Bunga asosiy sabablar Xitoy iqtisodiyoti o‘shish sur‘atlarining pasayishi, Xitoy va AQSH o‘rtasida savdo munosabatlari keskinlashuvi, Germaniyada avtomobillar ishlab chiqarishdagi muammolar va tabiiy ofatlarning Yaponiya iqtisodiyotiga salbiy ta‘siri ekanini ko‘rish mumkin.



4-rasm. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) va tijorat banklari kreditlari miqdorining ulushi hamda o‘zgarish dinamikasi¹⁴, trln. so‘m

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi esa, asosan mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog‘liq. 2022-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 888,3 trln. so‘mni tashkil qildi va 2021-yil bilan qiyoslaganda 16,8 foiz o‘shishga erishgan¹⁵. YaIM kishi boshiga 25,3 mln. so‘mni tashkil qildi. 2014-2022-yillarda, O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti va tijorat banklari kreditlarining hajmi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yimalari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2022-yilda 16,3 foizga oshib, 2022-yil holatiga 390,1 trln. so‘mga yetdi, kreditlarning YaIM nisbatan darajasi 44 foizni tashkil etdi (4-rasm).

¹³ www.bbc.com. Xalqaro valuta jamg‘armasi ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan.

¹⁴ www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ www.stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Mamlakatimizda oxirgi 10 yillikda kreditlar salmog'i 35 marotaba, bank aktivlari esa 23 marotabadan ko'proqqa oshganligini kuzatish mumkin¹⁶. Xususan, 2017-2021-yillar mobaynida tijorat banklari aktivlari va kreditlarning o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan, ayniqsa 2017-yil oktyabr oyida sezilarli darajada oshgan. Buning asosiy sababi oxirgi yillarda bank tizimiga aloqador bo'lgan qator me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PQ-5177-son «Valuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», 2017-yil 12-sentyabrdagi «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3270-son Qarorlari banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirish imkonini berdi. E'tirofli jihatlardan yana biri shuki, 2017-yilning sentyabr oyidan boshlab, milliy valuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida belgilanishiga o'tilishi va milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan devalvatsiya qilinishi ham bu jarayonga asosiy ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi bank sektorida ijobiy tendensiyalar 2016-yildayoq ko'zga tashlangan edi. Biroq, bugungi kunda davlat banklari O'zbekistondagi milliy bank tizimining salbiy natijasining asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Davlat aktivlariga ega bo'lgan tijorat banklarida hukumatdan olingan mablag'lar ulushi, hali ham yuqori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi yuqori konsentratsiya mavjudligi bilan ajralib turadi. Jumladan, barcha bank aktivlarining 84 foizi hanuzgacha davlat ulushi mavjud banklarga tegishli, 64 foizi esa 5 ta yirik bankka (Milliy bank, Asaka bank, O'zsanoatqurilishbank, Ipoteka bank va Agro bank) tegishli. Davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining kreditlariga nisbati 32,9 foizni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, xususi banklarda bu ko'rsatkich qariyb 96 foizni tashkil etadi¹⁷.

O'zbekiston tijorat banklari kredit qo'yilmalarining muddatlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, tijorat banklarining umumiy kredit portfelidagi uzoq muddatli kreditlarning ulushi ancha yuqori darajada ekanini kuzatish mumkin. 2014-yilda jami kredit portfelining 87 foizdan ortiq qismi uzoq muddatli kreditlar ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 90 foizgacha ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu resurslar asosan, mamlakat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz tijorat banklarida milliy va xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar tahlilini kuzatadigan bo'lsak 2022-yil davomida milliy valuta siyosatining liberallashtirilishi hisobiga jami kredit qo'yilmalari tarkibida chet el valutasida ajratilgan kreditlar ulushi 50 foizga yaqinlashganligini ko'rishimiz mumkin, ushbu ko'rsatkichlar MDH mamlakatlaridagi ko'rsatkichlariga nisbatan ancha yuqori bo'lib, bu, o'z navbatida, kreditlarning qaytarilmasligi xatari va muammoli kreditlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin (1-jadval).

¹⁶ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.

¹⁷ <http://cbu.uz/> sayt ma'lumotlaridan foydalanildi.

**O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining
muddatlari bo‘yicha taqsimlanishi¹⁸**

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Miqdori bo‘yicha, trln. so‘m									
Ajratilgan kreditlar	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	210,1	275,3	326,4	390,1
Muddatlari bo‘yicha, (qisqa muddatli) trln. so‘m									
Qisqa muddatli	4,49	12,11	4,29	4,76	8,67	17,95	28,24	33,4	51,1
Shundan, foizda									
Milliy valutada	60,96	67,76	57,21	37,74	44,13	64,6	59,8	50,4	51,7
Xorijiy valutada	39,04	32,24	42,79	62,26	55,87	35,4	40,2	49,6	49,3
Muddatlari bo‘yicha, (uzoq muddatli) trln. so‘m									
Uzoq muddatli	30,01	30,59	49,11	105,84	158,73	192,15	247,06	293,1	338,9
Sundan, foizda									
Milliy valutada	59,75	65,52	58,12	42,14	48,51	98,7	121,6	49,4	52,6
Xorijiy valutada	40,25	34,48	41,88	57,86	51,49	93,4	125,4	50,6	47,4

Joriy yilda mamlakatimiz tijorat banklari kredit qo‘yilmalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tarmoqlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich, ya‘ni 37 foiz sanoat sohasiga to‘g‘ri kelmoqda, bundan tashqari, sanoat sohasiga boshqa tarmoqlarga nisbatan foizlar yuqori ko‘rsatkichga ega. Qishloq xo‘jaligi hamda transport va kommunikatsiya sohalariga kredit ko‘rsatkichlari yillar kesimida o‘rtacha 9-11 foiz atrofida tebranganini kuzatish mumkin. Moddiy va texnik ta‘minot hamda uy-joy kommunal tarmoqlariga kredit bor-yo‘g‘i 1 foizga to‘g‘ri kelishi ushbu yo‘nalish yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Ushbu davrlarda kredit qo‘yilmalari yo‘naltirilgan tarmoqlar tarkibida sanoatning ulushi o‘zining sezilarli darajada yuqoriligini saqlab kelmoqda (2-jadval).

¹⁸ <http://cbu.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining
tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi¹⁹**

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Miqdolari bo‘yicha, trln. so‘m									
Ajratilgan kreditlar	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	210,1	275,3	326,4	390,1
Tarmoqlar bo‘yicha, foizda									
Sanoat	44	36	35	41	40	35	37	36	37
Qishloq xo‘jaligi	6	4	6	4	6	8	10	11	11
Transport va kommunikatsiya	12	18	14	15	12	11	10	9	8
Qurilish sohasi	3	3	4	3	4	3	3	3	4
Savdo va umumiy xizmat	7	6	8	5	6	7	7	8	8
Moddiy va texnik ta‘minot	1	1	1	-	2	2	1	1	1
Uy-joy kommunal	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Boshqa sohalar	26	31	31	31	29	33	31	31	30
Jami:	100	100	100	100	100	100	100	100	100


Albatta, kreditlash mexanizmi bo‘yicha ham mamlakatimizda bir qancha muammolar talaygina, Jumladan, iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning 55-60 foizi markazlashgan manbalar hisobidan ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelib, mazkur kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari bozor stavkalariga nisbatan ancha past imtiyozli shartlarda ajratilgan. Bu holat kreditlash mexanizmining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirib kelmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi 2022-yil davomida iste‘mol bozoridagi narxlar va tariflarning o‘shish darajasi 11,1 foiz bo‘lganini ma‘lum qildi. 2021-yil ushbu ko‘rsatkich 15,2 foiz bo‘lgani e‘tirof etilgandi. Joriy yilda qayta moliyalash stavkasining yillik 14 foiz stavkada o‘zgartirishsiz qoldirilgani, kreditlash shartlarining o‘shish sur‘atlarini normallashtirish imkonini berdi²⁰.

2022-yil holatiga muammoli kreditlar qoldig‘i 13,99 trln.so‘mga yaqinlashdi, bu jami kredit qo‘yilmalarining 3,6 foizini tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2016-2021-yillarda ushbu ko‘rsatkichda o‘shish tendensiyasini kuzatish mumkin. Muammoli kreditlarni bartaraf etish uchun ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash muhimdir. Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida, muammoli kreditlar foizi 2013-yildan 2021-yilgacha 0,54 foizgacha kamayganligi ijobiy holat, ammo 2022-yilga kelib, 3,6 foizni tashkil qilmoqda, bu bank tizimidagi muammoli kreditlar jahon mexanizmidagi qabul

¹⁹ <http://cbu.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁰ Markaziy bank hisob-kitoblari.

qilingan kritik 3 foizli ko'rsatkichdan ko'p, shu sababli, bugungi kunda muammoli kreditlarni kamaytirish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanishi kerak (5-rasm).



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida muammoli kreditlarning o'zgarish dinamikasi (2013-2022 yy)²¹.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklari mijozlarining asosiy qismini kichik biznes subyektlari tashkil qiladi. Ularning faoliyatini yo'lga qo'yishda albatta moliyaviy mablag'ga ehtiyojlari mavjud, bu ehtiyojlarni qondirishda ular tijorat banklarning kredit mablag'lari hisobiga faoliyatini rivojlantiradi. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar nafaqat banklarning daromadligi, balki iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda YaIM hajmi oshishi, aholi daromadlari ko'payishi va aholi bandligi darajasi oshishiga ijobiy ta'sir etishini korrelatsion-regression tahlil asosida o'rganishga harakat qilindi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarida band bo'lgan aholi soni va kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan bank kreditlarining YaIMdagi kichik biznes subyektlari ulushiga o'zaro bog'liqligining korrelatsion regression tahlillari amalga oshirildi. Buning uchun davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan ma'lumotlar bazasidan foydalanildi.

Tanlanma korrelatsiya koeffitsiyentiga ko'ra, kichik biznes subyektlarining YaIMdagi salmog'iga mazkur sohada band bo'lganlar sonining ta'sirchanligi yuqori bo'lib, $R=0,9597$ ga teng. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining YaIMdagi salmog'iga kichik biznes subyektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta'sirchanligi

²¹ <http://cbu.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ham yuqori, ya'ni $R=0,7686$ ga teng. Umuman, o'rganilayotgan omillar orasidagi korrelatsion bog'liqlilik darajasi yuqoridir (3-jadval).

3-jadval

(MS Excel) da tanlanma korrelatsiya koeffitsiyentining chegaralari²²

Ko'rsatkichlar	Kichik biznes subyektining YaIMdagi salmog'i (%)	Kichik biznes subyektida band bo'lganlar soni (mln. kishi)	Kichik biznes subyektlariga ajratilgan bank kreditlari (trln. so'm)
Kichik biznes subyektlarining YaIMdagi salmog'i (%)	1		
Kichik biznes subyektlarida band bo'lganlar soni (mln. kishi)	0,959718037	1	
Kichik biznes subyektlariga ajratilgan bank kreditlari (trln. so'm)	0,768586181	0,910057465	1

Excel dasturining «Analiz dannix» imkoniyatlaridan foydalangan holda regression tahlilni amalga oshiramiz. Bog'liqlik zichligi shkalaga asosan $r = 0,992474054$ ni tashkil etadi. Demak, ushbu shkalaga asosan ko'rsatkichlar orasidagi korrelatsiya koeffitsiyenti juda kuchli bog'liqlik darajasiga ega.

Ma'lumotga ko'ra, $a_0=-157331$, $a_1=8.056$, $a_2=0,00075$ teng bo'lib regressiyaning to'g'ri chiziqli formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$KBYU(u) = 8,056KBBS(x1) - 0,00075KBBKR(x2) - 15,7331$$

Demak, a_1 regressiya koeffitsiyenti natijaviy belgi (u) bilan omilli belgi (x) o'rtasidagi bog'lanishni belgilab beradi. Bu esa, omilli belgi bir birlikka oshganda natijaviy belgi necha birlikka oshishini ko'rsatadi.

Regressiya tenglamasi ($Y=8,056-0x1-0,00075x2$) ning adekvatligini tekshirish uchun F-mezondan foydalanamiz.

Kuzatilgan ma'lumotlarga ko'ra, hisoblangan F_r (hisoblangan, kuzatilgan F) ko'rsatkichi tegishli kritik ko'rsatkich F_k , (F kritik, jadvali) bilan qiyoslandi.

$$F \text{ hisob} = 4.25, F \text{ jadval} = 295.595$$

Muallif hisob-kitobida $F \text{ hisob} > F \text{ jadval}$ ekani uchun (1) ekonometrik model adekvat hisoblanadi.

$$T_k = 2,262, Ta_0 = -3,9, Ta_1 = 15,38, Ta_2 = -6,19$$

Hisob-kitobda $Ta_1 > T_k$ ekanidan a_1 regressiya koeffitsiyentining mohiyatli ekanini bildiradi.

